

**“TIQXMMI” MTUNIN G QARSHI IRRIGATSIYA VA AGROTEXNOLOGIYALAR
CHORVACHILIK VA QISHLOQ XO’JALIGINI MEXANIZATSİYALASH FAKULTETI
“GEODEZIYA VA GEOINFORMATIKA” TA’LIM YO’NALISHINING
311- GURUHI TALABALARI YIG’ILISHINING**

B A Y O N I

2024 yil 27- fevral

Qarshi shahri

Raislik qildi: CHQXM fakulteti dekani U.I.Qodirov
Qatnashdilar: Profilaktika inspektori F. Abdusalimov, Institut ilmiy kotibi R.Xushvaqtov, CHQXM fakulteti tyutorli O.Azimov, guruh talabalari (ro’yxat ilova qilinadi).

KUN TARTIBI:

1. Guruh talabalarining tartib-intizomi, yurish-turish va rasmiy muloqoti to’g’risida.

(U.I.Qodirov, F.Abdusalimov, O.Azimov, guruh yetakchilari, guruh talabalari.)

E S H I T I L D I:

U.I.Qodirov – Assalomu-alaykum! Hurmatli talabalar, xalqimizda farzand tarbiyasi masalasi jamiyatning eng ustuvor vazifalaridan biri sifatida azal –azaldan muqaddas vazifa sanaladi, tarbiya uzlusiz jarayon bo’lib, inson dunyoga kelishidan boshlab, to umrining oxirigacha davom etadi. Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqeа –hodisalarning shaxsga salbiy yoki ijobiy aks ta’sir etishi uning insoniy fazilatlari qay darajada shakllanganligini belgilaydi.

Inson avvalo oila bag’rida unib-o’sadi, shaxs sifatida shakllanadi. Oiladagi ta’lim-tarbiya, ma’naviy-ahloqiy qadriyatlar keyinchalik odamlar orasida mahalla - ko’yda, ta’lim muassasalarida sayqal topadi.

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutining namunaviy odob-axloq kodeksi 2023 yil 15-sentabrda № 2 sonli yig’ilishida tasdiqlangan. Odob-axloq kodeksining maqsad va vazifalari, 4-bob, 11-modda. Institutda kiyinish va tashqi ko’rinishga oid qoidalar haqida, 16- modda. Institutda g‘ayri axloqiy va nojo‘ya xatti-harakatlarni sodir etishga yo‘l qo‘yilmasligi to’g’risida aytib o’tildi, hamda ushbu va shunga o’xshash holatlar yuzasidan talaba-yoshlarning fikr va mulohazalarini bildirishlarini so’radi.



F.Abdusalimov – 311- guruh talabalariga institutning amaldagi ichki tartib qoidalarining, hamda institutning amaldagi odob-ahloq qoidalar haqida ma’lumot berdi Institut Odob axloq kodeksiga barcha talabalarni amal qilishlari lozimligi bo'yicha tushunchalar berdi.



O.Azimov – Guruh talabalari o’rtasida o’zaro hurmat, madaniyat, qadriyatlar shuningdek ta’limga nisbatan ma’suliyat tushunchalari yuqori bo’lishi lozimligi haqida aytib o’tdi.

Q A R O R Q I L A D I :

1. CHQXM fakulteti dekani U.Qodirov bergan ma’lumotlar ijro uchun qabul qilinsin.
(mas’ul: *U.I.Qodirov, F.Abdusalimov, O.Azimov, guruh yetakchilari* muddat – doimiy)
2. Guruhda ta’lim-tarbiyaviy ishlar qat’iy nazoratga olinsin.
(mas’ul: U.Qodirov, tyutor O.Azimov, muddat – doimiy)
 3. Institut ichki tartib qoidalari va odob-ahloq qoidalalarini buzgani uchun talaba A.Jalilberdiyeva hayfsan e’lon qilinsin. (mas’ul: U.Qodirov, muddat – 3 kun).
 4. Yig’ilish qarori matni bilan barcha talabalar tanishtirilsin.
 5. “Hayfsan” e’lon qilingan talabaning xulq-atvoriga javobgar bo’lgan dekan o’rinbosarlari va guruh tyutori O.Azimov tomonidan barcha talabalarga tushuntirish ishlari olib borilsin.
(mas’ul: U.Qodirov, O.Azimov, muddat – 3 kun).
 6. Ushbu qarorlarning bajarilishini nazorat qilish fakultet dekani U.Qodirovga zimmasiga yuklatilsin.

Rais:

U.I.Qodirov

Kotib:

O.Azimov